

YURTIMIZDAGI SAN'ATGA BO'LGAN E'TIBOR VA E'TIROFNING
YUKSALISHI

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek Milliy Musiqa san'ati instituti dotsenti
Qodirov Nabijon Dadaxanovich

Annotatsiya : Respublikamizdagi san'atga, ayniqsa, musiqa yo'nalishiga bo'lgan e'tiborning yorqin isboti sifatida O'zbekistonning xalqaro musiqa festivallarida yetakchi mezbon davlat sifatida qatnashishidan ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, sozandalik yo'nalishiga ham katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Sozandalik, umuman olganda, musiqa tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ushbu tarix, milliylikdan qadriyat darajasigacha ko'tarilgan bebaho merosimizdir.

Аннотация: Ярким доказательством внимания, уделяемого в нашей республике искусству, особенно музыке, мы можем видеть участие Узбекистана в качестве ведущей принимающей страны в международных музыкальных фестивалях. Особое внимание уделяется музыкальному направлению. Если мы посмотрим на историю композиции и музыки в целом, то эта история – наше бесценное наследие, поднявшееся с национального уровня на уровень ценности.

Abstract: As a clear proof of the attention paid to art in our republic, especially to music, we can see the participation of Uzbekistan as a leading host country in international music festivals. Special attention is being paid to the direction of music. If we look at the history of composition and music in general, this history is our invaluable heritage, which has risen from the national level to the level of value.

Kalit so'zlar: Musiqa, sozandalik, milliylik, musiqa uslublari, musiqa san'ati, cholg'u asboblari, an'anaviy, g'ijjak, zamonaviy texnika vositalari

Ключевые слова: Музыка, музыкальность, национальность, музыкальные стили, музыкальное искусство, музыкальные инструменты, традиционные, гизжак, современные технические средства.

Key words: Music, musicianship, nationality, musical styles, musical art, musical instruments, traditional, gijjak, modern technical tools

Xorazmda xonandalik, sozandalik va raqqoslikni o'ziga kasb qilib olgan san'atkorlar guruhlarini "sozanda qo'shlari" deyilgan. Ular ikki xil tarkibda, ya'ni 2 ta surnaychi, doirachi, tanburchi, ashulachi, sozchi (garmonchi)ashulachi, raqqos, masxaraboz, so'z ustasi (shuning o'zi mag'aldoqchiakrobat); dorbozchi, chodir xayol (qo'g'irchoqboz) va boshqalardan tashkil topgan. Sozanda qo'shlarining vazifasi to'yda baxshi dostonni tugatgandan keyin yoki to'yni yanada qizdirish maqsadida o'z san'atlarini (Lazgi kabi kuy va raqslarni ijro etib) namoyish qilishdan iborat. El orasida tanilgan sozanda qo'shlarining boshliqlaridan Husayn Kalot, Sobir Kalot, Shomurod surnaychi, Ushli Kal (mashhur "Ushlini uforisi" yallasining muallifi), Durdi karnaychi, Sobir Dorboz, Xo'ja Ko'r, Otoq Jonli, Kupal Hoji, Bayotvoy, Ollabergan Hoji, Xudoybergan Vovoq va boshqa mashhur.

Yangi O'zbekistonda III Renessans poydevorini mustahkamlashning eng ustuvor vazifalaridan biri bu yosh avlodni milliy g'urur bilan tarbiyalash, milliy qadriyat va an'analarni yanada chuqur singdirish, ajdodlarga munosib avlod bo'lishni uqtirish, milliy ong, teran o'y bilan voyaga yetish, xalqaro miqyosdagi eng kerakli ilmlarni o'rganish va o'rgatishdan iborat.

Milliylik esa, albatta, milliy qadriyatlar bilan singadi va bu yo'lda musiqaaning o'rni beqiyos. Shuning uchun ham mamlakatimizda musiqa juda kam katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshligida hududlardagi musiqa maktablari ko'zdan kechirilib kelinmoqda. Joriy yilning 3-aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabiga tashrif buyurdilar. Prezident san'at ma'naviy boy avlodni tarbiyalashga xizmat qilishini, bunga mehrni bolalikdan boshlab shakllantirish zarurligini ta'kidladi. Shu maqsadda umumiy ta'lim tizimi bilan musiqa ta'limi dasturlarini uyg'unlashtirish muhimligi aytili. San'at maktablari bilan oliygohlar, teatrlar va boshqa madaniyat muassasalarining hamkorligi tizimini kuchaytirish vazifasi qo'yildi. 1

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 6 aprelda imzolangan "Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga asosan, 6 – 10 sentyabr kunlari yurtimiz ahli va mehmonlari ushbu nufuzli tadbirning guvohi bo'lishdi.

Davlatimiz rahbari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog'ida sohibqiron bobomiz Amir Temur qurdirgan Oqsaroyini ziyorat qilib, Shahrisabz qadimiy merosimiz bo'lgan maqomlarni dunyoga taratish uchun eng maqbul joy ekanligini ta'kidlagandi. Zero, "Shashmaqom" dunyoga kelgan o'sha davr aynan Amir Temur davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Buyuk bobomiz davrida musiqa san'ati jadal rivojlanib, chinakam uyg'onish davrini boshdan kechirganligi, sozandalik va xonandalik, musiqa ilmi hamda bastakorlik kamol topganligi haqida ko'plab manbalar mavjud. Ularda ta'kidlanishicha, XVII-XVIII asrlarga kelib, Shahrisabzda buxorolik va samarqandlik san'at ustalari hamkorligida "Shashmaqom" taronalariga raqsga tushadigan raqqoslar hamda sozandalar guruhlar tuzilgan.

Anjuman munosabati bilan ko'plab mamlakatlardan hofiz-u sozandalar, sayyohlar va boshqa mehmonlar Shahrisabzga tashrif buyurishdi. Bu esa dunyo miqyosida ushbu san'at hamda yurtimizga bo'lgan qiziquvchilar safining oshib borayotganini bildiradi. 2

O'zbek musiqa san'ati, uning sozandalik va sozgarlik kasbiy yo'nalishi qadim-qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir. O'zbek sozandalik va sozgarlik o'ziga xos

tarixi va an'analarga boy meros sifatida asrlar osha bizgacha etib kelgan ushbu cholg'ular ijrochilik mahoratining ajoyib namunalari o'zining rango-rang jilosi, ohangrabo kuylari bilan

kishilarga olam-olam shavq-zavq hamda huzur baxsh etib kelgan.

Miloddan oldingi va eramizning dastlabki asrlarida ikki daryo oralig'ida qurilgan inshootlar: Ayritom, Zartepa, Bolaliktepa, Dalvarzintepa, Xolchayon, Afrosiyob, Panjikent, Pop

va qadimgi Xorazm hududidagi Xumbuz tepa (miloddan oldingi VI-IV asr), Qo'y qirilgan qal'a

(miloddan oldingi IV -III asr), Burgutqal'a, Jonbosqal'a, Bozorqal'a (miloddan avvalgi IV asr)

kabi qal'a va qo'rg'onlardan topilgan devorlarga chizilgan rasmlar, budda ma'budasining haykalchalari, «Tuproq qal'a» - (I-III asr), «Qirq qiz qal'a» (V- VI asr) kabi istehkomlaridan

topilgan nay, qo'shnay, chiltor, qo'shtor, qo'shkosa, ud, daf va nog'oraga o'xshash asl nomlari

saqlanmagan cholg'u sozlarini ushlagan mutriba ayol va erkaklar tasvirlangan tangachalar, ganch

haykalchalardagi cholg'ular tasviridan ularning qaysi turga mansubligini aniqlashimiz mumkin.

V-VII asrlarga taalluqli- Namanganning Pop tumanidan topilgan, «Bo'yradan to'qilgan sag'analar» orasida qamishdan yasalgan olti teshikli qo'shnay va boshqa arxeologik topilmalarni

sozandalik va sozgarlik san'ati rivojida asosiy omil sifatida e'tirof etish mumkin.

Bu sozandalik va sozgarlik san'ati bo'yicha torli (torli chertim, torli plektor, torli kamonli va torli urma), puflama-damli (naysimon, tilsimon va karnaysimon) va urma-zarbli (teri

bilan qoplangan va o'zi sado beruvchi) cholg'ular guruhi va turlariga bo'linadi. Har bir cholg'u

o'z tuzilishi, tasviriy vositalarining xarakteri xususiyatlari va ijrochilik uslublari bilan ajralib

turadi. O'zbek musiqa cholg'ulari an'anaviy (nay, sibizgi, qo'shnay, g'ajir nay, surnay, bulamon,

karnay, tanbur, dutor, do'mbira, qonun, qo'biz, sato, chang-qo'biz, doyra, nog'ora, doul va

boshq.) va qayta ishlangan (g'ijjak, qashqar va afg'on ruboblari, chang, ud) xillariga bo'linadi.

Bu cholg'ularning har biri ijro etiladigan musiqa asari xususiyatlari va vazifalariga qarab yakkasoz yoki ma'lum ansambl tarkibida ishlatiladi. SHu tufayli an'anaviy yakkasoz va ansambl ijrochiligi yuzaga kelgan.³

Yurtimizning turli hududlarida har bir cholg'u asbobining o'z o'rni bor va turli xil musiqa uslubi bor. Qadimdan madaniyat va san'at maskani bo'lgan Xorazm vohasida o'ziga xos xalq musiqa ijodiyoti (bolalar va marosim qo'shiqlari, xalfa laparlari va boshqalar), og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa (doston, talqinchi va go'yandalar san'ati, maqom va boshqalar) namunalari keng o'rin tutadi.

Xorazmda xonandalik, sozandalik va raqqoslikni o'ziga kasb qilib olgan san'atkorlar guruxlari "sozanda qo'shlari" deyilgan. Ular ikki xil tarkibda, ya'ni 2 ta surnaychi, doirachi, tanburchiashulachi, sozchi (garmonchi)ashulachi, raqqos, masxaraboz, so'z ustasi (shuning o'zi mag'aldoqchiakrobat); dorbozchi, chodir xayol (qo'g'irchoqboz) va boshqalardan tashkil topgan. Sozanda qo'shlarining vazifasi to'yda baxshi dostonni tugatgandan keyin yoki to'yni yanada qizdirish maqsadida o'z san'atlarini (Lazgi kabi kuy va raqslarni ijro etib) namoyish

qilishdan iborat. El orasida tanilgan sozanda qo'shlarining boshliqlaridan Husayn Kalot, Sobir Kalot, Shomurod surnaychi, Ushli Kal (mashhur "Ushlini uforisi" yallasining muallifi), Durdi karnaychi, Sobir Dorboz, Xo'ja Ko'r, Otoq Jonli, Kupal Hoji, Bayotvoy, Ollabergan Hoji, Xudoybergan Vovoq va boshqa mashhur.

Xorazm musiqa uslubining baxshi dostonchilar san'ati o'ziga xos bo'lib, alohida o'ringa ega. Dostonning nasriy qismi hikoya, nazmiy qismi esa qo'shiq shaklida ochiq ovozda cholg'u ansambl jo'rligida ijro etiladi. Xorazm baxshichiligi Shirvoni va Eroniy uslublarga bo'linadi. Shirvoni uslub Amudaryoning yuqori va o'rta oqimidagi hududda tarqalgan (markazi – Xiva). Bu uslub namoyandalari dutor, g'ijjak, bo'lamon va doyra jo'rligida kuylaydilar.

Eroniy uslub Amudaryoning quyi oqimi hududida tarqalgan (markazi – Mang'it sh.). Ushbu uslub baxshilari dutor, g'ijjak, bo'lamon jo'rligida doston kuylashadi. Ularning qo'shida doira qatnashmaydi. 4

O'zbek cholg'u asboblari orkestrida g'ijjakchilar guruhi xuddi simfonik orkestrdagi kamonli sozlar guruhi (skripka, alt, violonchel, kontrabas) kabi yetakchilik qiladi. Shuning uchun g'ijjak cholg'u asbobining tarixi va uning musiqa o'rnidagi ahamiyatini ko'rib chiqamiz. G'ijjak – torli kamonli musiqa asbobi. O'zbek, tojik, turkman, uyg'urlarda va kamon, kemancha nomi bilan Kavkazorti mamlakatlarida keng tarqalgan.

O'rta asr musiqa risolalarida bayon etilgan rivoyatlarga ko'ra g'ijjakni (g'ipchak nomi bilan) Forobiy yaratgan, Ibn Sino dastlabki 2 torini kvartaga soxtagan, Qulmuhammad Udiy esa G'ijjakka 3-torni qo'shgan. Ungacha 2 simli g'ijjakda ipakdan eshilgan yoki simli aks-sado beruvchi torlar soni 8-11 tagacha bo'lgan. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida aytilishicha, g'ijjakni chala bilish barcha saroy sozandalari uchun shart bo'lgan. O'rta asrda Alijon G'ijjakiy, Xo'ja O'zbek G'ijjakiy kabi san'atkorlar mashhur bo'lgan.

G'ijjakning inson ovozigacha yaqin, nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boy, xonaqoiy ijro uslubi tufayli milliy mumtoz musiqa ansamblarida asosiy o'rin tutadi.

O'zbekistonda g'ijjak ijrochiligining o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'lgan. Farg'ona vodiysi hofizlik san'ati hamda surnay ijrochilik an'analari ta'sirida shakllangan Andijon maktabi (T. Jalilov, G'. Hojikulov, E. Ro'ziboyev, Yu. Yusupov va boshqalar) mayda urg'u (aksent)lar, kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo'llari, surnayga xos qochirimlar singdirilganligi bilan ajralib turadi. Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, M. Niyozov, M. Muhammedov ijrosida „Surnay Irog'i“, „O'yin Munojoti“, „Dugohi Husayniy“ hamda „Kezarman“ (G'. Toshmatov), „Gul mavsumi“ (rov) kabi g'ijjak kuylari mashhur.

G'ijjak yakkanavoz cholg'u, ayni paytda jo'rnavoz soz sifatida ham keng qo'llanilmoqda. Turkman, qoraqalpoq, xorazm baxshilari (masalan, R. Murodov), Andijonda T. Jalilov, G'. Hojikulov, S. To'xtasinovlar o'ziga xos jo'rnavozlik yo'llarini yaratishgan, 1970-yillardan boshlab g'ijjakni yakkanavoz va milliy cholg'u ansambli tarkibida alohida ko'rsatish, unda o'ziga xos kuy tuzilmalarini badiha tarzida chalish usullari Abduhoshim Ismoilov, A. Dadayev va boshqa ijrosida ommalashgan. Zamonaviy texnika vositalari (masalan, qisqa cho'zimli tovushlarni ishlatish yo'llari) keng kirib kelib, polifoniya va polimonodiya xususiyatlaridan foydalanilmoqda. 5

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.<https://kun.uz/news/2024/04/03/shavkat-mirziyoyev-toshkentdagi-1-bolalar-musiqava-sanat-maktabiva-gulzor-mahallasida-boldi>
- 2.<https://xs.uz/uz/post/yurtimizda-maqom-sanati-bajrami>
- 3.ISSN 2181-3337 SCIENCE AND INNOVATION
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, A.Isroilov, SOZANDALIK VA
SOZGARLIKNING O'ZBEK MUSIQA SAN'ATI RIVOJIDAGI
AHAMIYATI, 125-b
- 4.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xorazm_musiq_ustlari
- 5.https://uzpedia.uz/pedia/gijjak_3